

KORRUPSIYANING INSON VA JAMIYATGA ZARARI YOXUD UNING YO'QOTILISHI QIYIN BO'LGAN ILDIZ SIFATIDA TAHLILI

Kenjaboyeva Mavluda

Toshkent davlat yuridik universiteti 2-kurs talabasi.

e-mail: rajabovamuhabbat995@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14019248>

Annotatsiya. Ushbu maqolada korruptsiyaning bugungi jamiyatga ta'sir qilish darajasi va uning insonlar hayoti, korxona va tashkilotlar faoliyatiga, davlat organlarining va hokimiyatning ichki boshqaruviga yetkazadigan zarari va boshqalar haqida so'z yuritiladi. Barchaga birdek ma'lum bo'lganidek korruptsiya bir yoki ikkita ma'mlakatda tarqalgan narsa emas, u juda ko'plab davlatlarning ichki faoliyatida keng tarqalgan jinoyat turi hisoblanadi va hozirgacha ko'plab davlatlarda bunga qarshi kurashish uchun chora tadbirlari olib borilyapti, jumladan O'zbekistonda ham bu illatni yo'q qilish uchun nazorat o'rnatilgan. Ammo bu kabi chora tadbirlar o'z natijasini bera olyaptimi. Ba'zi bir olimlarning fikricha korruptsiya davlatning rivojlanishi va jamiyatning yuksalishi uchun katta xizmat qilayotgan ekan, bu qanchalik to'g'ri?

Kalit so'zlar: Korruptsiya, Adliya vazirligi, Shimoliy Korea.

ANALYSIS OF CORRUPTION'S DAMAGE TO HUMANS AND SOCIETY OR AS A ROOT WHICH IS DIFFICULT TO ELIMINATE

Abstract. This article talks about the degree to which corruption can affect today's society and its impact on people's lives, the activities of enterprises and organizations, the internal management of state bodies and authorities, etc. As everyone knows, corruption is not something that is spread in one or two places, it is widespread in the internal activities of many countries, and until now measures are being taken to eliminate it in various countries, including Uzbekistan. Controls have been established to do this. But are such measures able to produce results? According to some scientists, corruption is doing a great service for the development of the state and the rise of society, how true it is?

Key words: Corruption, Ministry of Justice, North Korea.

АНАЛИЗ ВРЕДА КОРРУПЦИИ ЧЕЛОВЕКУ И ОБЩЕСТВУ ИЛИ КАК ТРУДНО ЛИКВИДИРУЕМЫЙ КОРНЬ

Аннотация. В данной статье говорится о том, в какой степени коррупция может повлиять на современное общество и ее влияние на жизнь людей, деятельность предприятий и организаций, внутреннее управление государственных органов и органов власти и т.д. Как всем известно, коррупция – это не то, что распространено в одном или двух местах, она широко распространена во внутренней деятельности многих стран, и до

сих пор в различных странах, в том числе в Узбекистане, принимаются меры по ее искоренению. Но способны ли такие меры дать результат? По мнению некоторых ученых, коррупция оказывает большую услугу развитию государства и подъему общества, насколько это верно.

Ключевые слова: Коррупция, Министерство юстиции, Северная Корея.

KIRISH

Korrupsiya - so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib "corrumpo"- aynish, poraga sotilish degan ma'nolarni anglatadi va mansabdor shaxslarning o'z mansab vakolatida berilgan huquqlaridan foydalangan holatda shaxsiy boyib ketish yoki boshqa bir g'arazli maqsadda o'ziga berilgan vakolatdan chetga chiqib uni suiiste'mol qilish, ularni poraga berish yoki poraga sotilish kabi nazariyalarni o'z ichiga oladi Korrupsiya asosan davlat organlarining mansabdor shaxslari tomonidan o'ziga berilgan vakolatlarini keskin buzgan harakatidan yoki harakatsizligidan kelib chiqadi. Korrupsiyada vakolatli davlat organlarining mansabdor shaxslari porani olishi va aksincha pora sifatida nimanidir berib yuborishi mumkin, ikki holatda ham mansabdor shaxslarni korrupsiya sodir etgan deya javobgarlikka tortishlari mumkin.

Hozirda ko'pchilikda korrupsiya deganda aynan davlat organlarining vakolatli xodimlari sodir etgan qonun buzilishi degan fikr tu'g'iladi, ammo korrupsiya subyektlariga faqat bu shaxslar kirmaydi. Uning subyektlariga qandaydir vakolatga ega hisoblangan ya'ni qaysidur ishni uni yordami bilan bajarishi mumkin bo'lgan shaxslarni ham kirita olamiz. Misol uchun biror bir korxonaning rahbari, ish yurituvchisi yoki oddiy xodimi ham ushbu jinoyat subyekt bo'la oladi chunki ular o'sha korxona uchun pora evaziga qandaydir ishni bajarib berishi yoki umuman bajarmay qo'yishi mumkin. Aslida biron bir holatni aynan korrupsiya deya hisoblashimiz uchun unda qanday elementlar bo'lishi kerak, birinchidan bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxsga berilgan pul, tovar, xizmatlar yoki boshqa moddiy qimmatliklar aynan qaysidur ishni bitirib berish uchun berildimi yoki shunchaki sovg'a sifatida berildimi buni aniqlash muhim hisoblanadi, chunki sovg'a berish pora hisoblanmaydi va hech qanday moddiy manfaat uchun bajarilmaydi yoki berilmaydi. Shunday qilib vaziyatni aynan korrupsiya deb hisoblashimiz uchun bir qancha muhim elementlar bo'lishi kerak ekan.

Yuqorida aytganimizdek korrupsiya dunyo bo'ylab keng tarqalib bo'ldi, misol uchun O'zbekiston, Niderlandiya, Daniya, New Zelandiya, Finlandiya, Singapur, Shvetsiya dunyodagi korrupsiya eng kam tarqalgan davlatlar qatoriga kirsa, Vetnam, Shimoliy Korea va Yaqin Sharq mamlakatlari korrupsiya darajasi keng tarqalgan davlatlar sirasiga kirar ekan. Nima deb o'ylaysiz

o'sha davlatlardagi rivojlanib borayotgan korrupsiya davlatlarga o'z ta'sirini o'tkazmay qoldimi?, albatta yo'q. Aynan korrupsiya sababli qanchadan qancha odamlar ishsiz qolyapti, rivojlanayotgan korxona va tashkilotlar faoliyati to'xtab qola boshladi, jamiyat ham bir chuqur botqoqqa bota boshladi. Davlat organlarining mansabdor shaxslarining sodir etgan korrupsiyasi sababli insonlarning, jamiyatning davlatga, uning organlariga nisbatan salbiy fikrlari va qarashlari ko'paya boshladi, ularga nisbatan juda ko'p insonlarda ishonchsizlik tuyg'usi paydo bo'la boshladi. Korrupsiya-jamiyatda ishonchsizlik uyg'otadi, u barcha zamonlarda ham eng ayanchli manfur illatlardan biri hisoblanadi. Aytganimizdek bu illat ijtimoiy keskinlikni, hokimiyatga nisbatan ishonchsizlikni shakllantirib qonunlar ustuvorligining rivojiga jiddiy ta'sir o'tkazadi deya juda ko'p joylarda izohlanadi. Korrupsiya deb atalmish salbiy illatning sodir etilishining asosiy yo'li poraxo'rlik, qarindosh-urug'chilik va hokazolar. Aynan bu yo'llardan keng foydalaniladi. Yana bir gap poraxo'rlik deganda aynan pul mablag'lari oldi-berdisi emas balki boshqa moddiy qimmatliklar misol uchun, qimmatbaho tovar, narsa yoki qandaydir xizmatni tushunsak ham bo'ladi.

Hop, siz korrupsiyani bartaraf etish uchun qanday yo'l va yechimlarni bilasiz.

Korrupsiya qarshi kurashish dunyo miqyosida bugungi kunning eng dolzarb masalalari bo'lib kelmoqda. Bu illatga qarshi kurash dunyoning ko'plab mamlakatlarini qamrab olmoqda.

Jumladan O'zbekistonda ham korrupsiyaga qarshi kurashish uchun bir qancha tashkilotlar tashkil etilgan. Xususan Adliya vazirligi tomonidan ham bir qator chora tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, unda adliya tizimiga kiruvchi idoralar va muassasalar faol ishtirok etib kelmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak hozirgi davrda korrupsiyaning sodir etilish darajasi rostdan ham yuqori darajaga yetdi va bu dunyo bo'ylab ildiz otib ketdi garchi buning uchun shunchalik ko'p chora tadbirlar ko'rilishiga qaramasdan. Bir so'z bilan korrupsiya shunchalik katta kuchki, u hatto jamiyatni yoki butun bir davlatni o'z domiga tortib ketib uni yo'q qila oladigan illat. Shu sababli ham bu salbiy illatni o'z vaqtida yo'q qilish choralari tezroq yo'lga qo'yilishi kerak. Eng samarali va kuchli yo'llardan foydalanib bu illatni ildiziga bolta urish kerak.

REFERENCES

- 1.<http://mehnat.uz/oz/news/korrupsiya-jamiyat-kushandasi>
- 2.<http://www.lex.uz>
- 3.<http://kun.uz> 2018/12/09.